



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2023
3-сон



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2023 йил, 3-сон

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Таҳририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:
и.ф.д. **М.Э.Пўлатов**

**Бош муҳаррир
ўринбосари:**
профессор **Д.Х.Асланова**

Масъул котиб:
профессор **М.Қ.Пардаев**

Муҳаррирлар:
Ф.А.Сафаров
Ш.З.Ўрозов

Техник муҳаррир:
А.Н.Холиқулов

Корректор:
С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:
Ҳ.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Таҳририят манзили:
140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(66)233-17-88

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@inbox.uz

Таҳририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти
ректори, иқтисод фанлари доктори, профессор

Таҳририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва инновациялар
бўйича проректори, иқтисод фанлари номзоди, профессор

Таҳрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Давлат Статис-
тика қўмитаси раиси, иқтисод фанлари доктори, профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – иқтисод фанлари доктори, профессор.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ каф.мудир, профессор, и.ф.д.

О.М.Мургазаев – ТДИУ Самарқанд филиали директори,
иқтисод фанлари доктори, профессор

М.Р.Болтабаев – Ўзбекистон Давлат жисмоний тарбия ва
спорт университети ректори, иқтисод фанлари доктори

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ каф. мудир, и.ф.д., профессор

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори в.б., и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ кафедра мудир, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ декани, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ доценти, и.ф.д.

Шермухаммад Бекмурод ўғли Омонов Хизмат кўрсатиш соҳасида давлат-хусусий шерикчилигининг ривожланиш хусусиятлари ва тамойиллари	79
Mohira Asqarboy qizi Umurova Хизмат ko'rsatish tarmoqlarining iqtisodiyotda tutgan o'rni hamda rivojlantirish istiqbollari	83
Ислон Исмоилович Эргашев Хизмат кўрсатиш корхоналари инвестицион жозибадорлигини баҳолашнинг хусусиятлари	86
Jahongir Aktamovich Haydarov Transport xizmatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish	91
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Илёс Султанович Абдуллаев, Шоҳижаҳон Худоёр ўғли Мухитдинов Минтақа туризмида соҳа корхоналарининг бошқариш сегментининг нисбий талаб-таклиф модели	97
Dilmurod Abdullayevich Nasimov, Mohinur Ravshanbekovna Maxmudova Turizm sohasini barqaror rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari	102
Ruxshona Shavkatovna Rofeyeva Samarqand shahri turizm infratuzilmasini rivojlantirishda yashil zonalar va bog'larning o'rni	105
Shohista Bobobekovna Toyirova Ekoturizm-global ekologik inqirozga qarshi innovatsion yechim	109
Дилшод Мураткулович Абдураимов Туризм инфратузилмасида иқтисодий фаолиятнинг ривожланиш хусусиятлари	113
Умиджон Рахимович Матякубов, Расулбек Кочкарбай ўғли Исаков Хива ва Боғот туманларида туризмни ривожлантириш имкониятларидан самарали фойдаланиш йўллари	118
Дониёр Журакулович Абдуразаков Қишлоқ туристик ресурсларини таснифлаш ва бошқаришнинг амалий масалалари таҳлили	122
Dilrabo Shirinboyevna Mardonova Mamlakatimizda mehmonxona biznesining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish va prognozlash	126
Амриддин Ҳамдам ўғли Ҳамдамов Туризм соҳасида юқори сифатли хизмат кўрсатиш учун рақамли технологиялардан фойдаланишни баҳолашнинг услубий асослари	131
Зебинисо Бахтиёровна Навруз-зода “КРП” воситасида муқаддас жойларнинг зиёрат кластербоплик даражасини баҳолаш	135
Сирожиддин Шерали ўғли Халилов Миллий туризм тармоғида рақобат муҳити ва унинг таркибий элементлари	140
КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК	
Гулнора Мардиевна Шадиева, Шухрат Облокулович Кувандиқов Миллий иқтисодиётда оилавий тадбиркорликнинг ўзига хос функциялари	145
МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ	
Raxmatillo Mirolimovich Egamov, Sherzod Norboyevich Jumanov, Alisher Zokirovich Saydirasulov Innovatsion tadbirlar asosida qurilish mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish uchun marketing tadqiqotlarini o'tkazish usullari	149

<p>Р. Рофеева</p> <p>Роль зеленых зон и садов в развитии туристской инфраструктуры города Самарканд</p>	<p>R. Rofeeva</p> <p>The role of green zones and gardens in the development of tourism infrastructure of the city of Samarkand</p>
<p>Аннотация: Это исследование направлено на изучение зеленых зон и парков как одного из ключевых факторов развития инфраструктуры для целей, связанных с туризмом. Результаты исследования помогают понять, как зеленые зоны связаны с развитием туризма. В данной статье изучены не только состояние таких зон, но и выдвинут ряд предложений для превращения их в интересное место для туристов.</p> <p>Ключевые слова: зеленые зоны, парки, инфраструктура, развитие инфраструктуры, туристическая дестинация, городской туризм.</p>	<p>Abstract: This study aims to examine green zones and parks as one of the key drivers of infrastructure development for tourism-related purposes. The results of the study help to understand how green zones are related to the development of tourism. In this article, not only the state of such zones has been studied, but a number of proposals have been put forward to turn them into an interesting place for tourists.</p> <p>Keywords: green zones, parks, infrastructure, infrastructure development, tourism destination, urban tourism.</p>

Shohista Bobobekovna Toyirova – “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti doktoranti

EKOTURIZM-GLOBAL EKOLOGIK INQIROZGA QARSHI INNOVATSION YECHIM

<p>Annotatsiya: Maqolada ekologik turizm dunyo atrof-muhitining barqaror holatda mavjud bo‘lishida tabiiy resurslarni oqilona boshqarish orqali suv va havoning ifloslanish darajasining pasayishiga olib keluvchi samarali turizm yo‘nalishi sifatida o‘rganilgan. Tabiiy resurslarning keragidan ortig‘i bilan ishlatilishi o‘ziga xos bo‘lgan tabiiy hududlarning qisqarishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishiga olib kelmoqda. Ushbu muammolarga qarshi eng maqbul yechim sifatida keyingi yillarda ko‘plab dunyo olimlarining ilmiy ishlaridan o‘rin egallayotgan ekologik turizm ko‘rsatilmoqda.</p> <p>Kalit so‘zlar: ekologik inqiroz, ommaviy turizm, ekoturizm, tabiiy resurslar, barqaror rivojlanish, biologik xilma-xillik.</p>
--


Kirish: Ekologik turizm atrof-muhitga yetkazilayotgan zarar miqdorini kamaytirishga ko‘maklashibgina qolmay, biologik xilma-xillikni asrab qolish va yo‘qolib borayotgan turlarni himoya qilish kabi vazifalarni ham bajaradi. Ayniqsa, bugungi kunda suv va havoning ifloslanishi tufayli yuzaga kelayotgan qator muammolarning oldini olishda ahamiyatli hisoblanadi. Aynan ekoturizm sabab dunyoning ko‘plab mamlakatlarida energiya ishlab chiqarishning muqobil ko‘rinishlari yaratilmoqda. Turizm sohasi e‘tiborni asosan kayfiyatni ko‘tarishga qaratilgan mashg‘ulotlar va xizmatlarga qaratgani bois tabiat bu faoliyatdan zarar ko‘rishi mumkin. Maxsus infraturizm talab qiluvchi ekologik turizm xuddi o‘sha dam olish va rohatlanishga qaratilgan maqsadlarni amalga oshirishda dam olish va orom bag‘ishlashga qaratilgan maqsadlarni atrof-muhitga ziyon yetkazmasdan amalga oshirish imkoniyatini yaratgani uchun dunyoning ko‘plab rivojlangan mamlakatlari turizmning bu yo‘nalishini davlat dasturlariga dolzarb masala sifatida kiritishgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Tabiat va tabiiy resurslarni asrab qolish, kelajak avlodga atrof-muhitning go‘zalliklarini asl holicha yetkazib berishda ekoturizmning o‘rni beqiyosligini Amanda L., Stronza A., Fitzgerald A., Hunt C.ning ilmiy maqolalarida o‘z aksini topgan. Weaver, Kontogeorgopoluslar esa ekoturizmni tabiati turli ta’sirlarga chidamsiz bo‘lgan hududlarda ommaviy turizmning salbiy oqibatlarini oldini olishda ahamiyatini alohida ta’kidlashgan. Tadqiqotchi Duffy esa yovvoyi tabiatni himoya qilish va atrof-muhitni asrab qolishda ushbu faoliyat sabab davlat organlari, mahalliy aholi va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda ish olib borishi bilan xarakterli ekanligini ta’kidlaydi. “Ekoturizmning har qanday ta’siri ostida insonlar tabiat bilan yaqin munosabatga kirishadi, hayvonlar, qushlar va o‘simliklarning yangi turlarini o‘zi uchun kashf etadi, ekologik turizm faoliyati bo‘lmagan taqdirda yo‘qolish xavfi ostida qolgan ko‘plab turlar inqiroz yoqasiga kelib qolgan bo‘lar edi”, deya bir qator olimlar xususan, Castley J.,

Buckley C., Morrison C., Steven R.lar ta’kidlab o’tishgan. Hunt C., Vargas E., Alexander S., Hawkins E., Fennell D. kabi olimlar o’zlarining dastlabki ilmiy ishlarida o’simlik va hayvonlarning maxsus turlarini ekoturizmning e’tibor markazida bo’lishini aytib o’tishgan. So’nggi yillarda Ralf Buckley va uning hamkasblari ekoturizmning Tabiatni himoya qilish xalqaro hamjamiyatning qizil ro’yxatida turuvchi sutemizuvchilar, qushlar va amfibiya turlari alohida nazorat ostida bo’lishi ekoturizmning asl mohiyatini yoritib berishi, Durham W., Kirby C. kabilar esa ekoturizmning alohida muhofaza qilinadigan hududlarning kengayishi, milliy parklarning ko’payishida uning hissasi katta ekanligini ta’kidlab o’tishgan.

Tadqiqot metodologiyasi: Maqolada mavzuni yotirib berishda statistik ma’lumotlardan foydalanildi, makon va zamon, induksiya va deduksiya metodologik usullar ham mavzu ma’lumotlarini shakllantirishda ishlatildi.

Tahlil va natijalar: So’nggi yillardagi tabiiy ofatlar sonining ko’payishi, ob-havoning mintaqalarda keskin o’zgarib ketishi, hayvon va o’simliklar noyob turlarining yo’qolish arafasiga kelib qolganligi dunyo bo’ylab ekologik muammolarning keskinlashib borayotganligidan darak bermoqda. Tirik Sayyora Hisoboti (The Living Planet Report) quyidagi 5 omilni biologik xilma-xillikga tahdid soluvchilar sifatida taqdim etdi (rasm 1)¹:



1-rasm. Biologik xilma-xillikka tahdid soluvchi omillar

Bunday ayanchli holat inson faoliyati, uning tabiatga nisbatan beshafqat munosabati sabab yuzaga keldi. Biologik xilma-xillikning muammoga yuz tutayotganligining asosiy sababchilaridan deb turizm sohasining rivojlanishi va uning tabiiy resurlarga bo’lgan ehtiyojini qondirish maqsadida undan betartib foydalanishni ko’rsatish mumkin.

XVIII asrda aholining faqat boy qatlami uchun imkon darajasida bo’lgan turizm transport qatnovlari to’lovlari narxlarining pasayishi, ish kunlarining qisqarishi, ish haqlarining ko’tarilishi kabi omillar sayohat qiluvchilar sonining ortishiga olib keldi. Keyinchalik xalqaro mehmonxonalar, avialiniyalar va sayyohlik agentliklari faoliyatidagi yuksalishlar tufayli sayyohlar oqimining salmoqli darajada ko’tarilishiga sabab bo’ldi². Ommaviy turizm asosiy e’tiborini moddiy manfaatga qaratgani bois ijtimoiy, ekologik va barqaror rivojlanish kabi jihatlar ko’p hollarda e’tibordan chetda qoladi. Olimlarning fikriga ko’ra, turizmning turli tabiatga asoslangan ko’rinishlarining paydo bo’lishi ommaviy turizmning salbiy oqibatlarini kamaytirishi mumkin. Shunday yo’nalishlardan biri ekologik turizm. Ammo, ekologik turizm ommaviy turizmning salbiy oqibatlarining oldini olishning eng samarali vositalaridan biri sifatida qaralsa-da, ushbu yo’nalish

¹ Owen Mulhern. The statistics of biodiversity loss.2020

² Carmen Peris. Traveling for pleasure: a brief history of tourism. 2022

to‘g‘ri tashkil etilmasa, oqibati yaxshi bo‘lmasligi Tailandda ekologik turizmning tashkil etilishdagi kamchiliklar tufayli sodir bo‘lgan noxush holat ko‘rsatib berdi. Shuning uchun ham ekologik turizm ommaviy turizmdan ajratilgan holda tashkil etilishi darkor. Rivojlangan mamlakatlar ekologik turizmni rivojlantirishda uni barqaror turizm talablariga asosan tashkil etishadi¹. Faoliyat maqsadi uzoq muddatli bo‘lib, turist turar joylarini yangi darajaga ko‘tarish, faoliyat turlarini kengaytirish, hayvon va o‘simlik turlariga bo‘lgan qiziqishni orttirish hamda sohaga ko‘proq manfaatdor tomonlarni jalb etishdir. So‘nggi bir necha yillarda ekologik turizm o‘zining asosiy boshqaruv tamoyillarini shakllantirdi. Ekologik turizm faoliyatida ta‘lim eng muhim jihat hisoblanadi. Sababi ekoturizm atrof-muhit muammolari, ularga yechim izlash, tabiatdagi o‘zgarishlardan xabardor bo‘lib turish, albatta o‘ziga yarasha bilim talab qiladi. Bundan tashqari sayyohlar o‘zlari tashrif buyurayotgan hudud to‘g‘risida biroz bo‘lsa-da tushunchaga ega bo‘lishni istashadi. Jahon sayyohlik tashkiloti 2010-2030-yillar oralig‘ida yillik xalqaro turistlar tashrifi 43 milliondan ortishi va 2030-yilga kelib 1.8 milliardga yetishi haqida xabar bermoqda. 2021-yil global ekoturizm bozor hajmi 185.87 mlrd dollar deb baholandi va 2022-2030-yillar oralig‘ida yillik o‘sish sur‘ati 15.2 %ga yetishi taxmin qilinmoqda². O‘sish asosan quyidagi ko‘rsatkichlarga asoslanadi:

- ✓ Urbanizatsiya jarayonining tezlashishi;
- ✓ Arzon aviachiptalar;
- ✓ Immersive sayohat;
- ✓ Ochiq havoda dam olish mashg‘ulotlari;
- ✓ Yolg‘iz sayohat qilishning ommalashuvi.

Global yillik ekoturizm daromadi 800 mlrd AQSH dollaridan (Xalqaro ekoturizm jamiyati) 1 trln AQSH dollarigachani tashkil etmoqda. Turizmning ushbu yo‘nalishi dunyo bo‘ylab har yili 11 mln ish o‘rnini yaratib kelayotganligi sohaning qay darajada ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. So‘nggi 30 yillik rivoji davomida dunyo bo‘ylab 90dan ziyod xalqlar bugungi kunda milliy va xalqaro barqaror turizm tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlab kelishmoqda³. Dunyoning eng mashhur saytlaridan biri bo‘lgan booking.com ning 2022-yil uchun bergan xabarlariga ko‘ra, o‘rganilgan 32 mamlakat bo‘ylab 30.000dan ziyod turistlarning katta qismi (71%) sayohat chog‘ida barqarorlik talablariga rioya qilishlarini ta’kidlashgan. Ularning 81%i global iqlim o‘zgarishlari va uning oqibatlari haqida yetarli ma’lumotga ega ekanligi ma’lum bo‘ldi. Savol-javoblar natijasida shu narsa aniq bo‘ldi-ki, 35% insonlar tabiatga ziyon yetkazmaydigan transport vositalaridan foydalanishlarini va 70% insonlar esa tabiatga zarar keltirmaydigan turar joydan foydalanishlarini bildirishgan. Bugungi kunda turistlarning tabiatga ziyon miqdorini kamaytirishni (41%), mahalliy aholi shug‘ullanadigan mashg‘ulotlar bilan yaqindan tanishish istagini bildirishgani(33%) aytib o‘tilgani sohaning kelajagi porloqligidan dalolat beradi va keng ommalashtirish ijtimoiy va iqtisodiy tomonlama ham foydadan holi emas. Ekologik turizm global ekologik inqirozning oldini olish, turli geografik hududlarda turlicha moddiy resurslarga ega hududda istiqomat qiluvchi insonlar hayotini yaxshilashda, atrofimizni o‘rab turgan bebaho tabiatni borligicha kelajak avlodga yetkazishda mavjud tabiiy resurslarni saqlab qolishda ayniqsa ahamiyatlidir. Moddiy manfaatdorlik bilan bir qatorda ushbu soha xalqlar o‘rtasidagi hamjihatlik va do‘stlik rishtalarini bog‘lash, dunyo xalqlarining mamlakat haqidagi tasavvurlarining kengayishiga olib keladi. Ekologiyani inson salomatligi va yo‘qolish xavfi ostida qolgan yovvoyi tabiatga tahdid solayotgan muammolar sirasiga dunyoning ko‘plab shahar havosining haddan tashqari ifloslanishi, Antarktidadagi stratosfera va ozon qatlamining yemirilishi, hududlardagi suv havzalarining turli chiqindilar bilan to‘lishi, tuproq eryoziyasi, kislotali yomg‘irlarni kiritish mumkin. Ushbu holat ayniqsa dunyo aholisining sezilarli darajada ko‘payishi muammoning jiddiylik darajasini yanada orttirmoqda. Tabiiy resurslarning keragidan ortig‘i bilan

¹ P.Wahono, D.Poeromo, M.S. Kusumah. Strategy for developing sustainable tourism. 2018. IOP conference. Series: Earth and Environmental science 361.

² Ecotourism market size, share and trends analysis report. By activity type,land, marine. By group (Solo, group). By booking mode, by age group, by region and segment forecast, 2022-2030. Market analysis report. National ecotourism strategy and action plan 2013-2022.

³ Jon Bruno. Global ecotourism trends and suggestions. The international ecotourism society .2022.

ishlatilishi o'ziga xos bo'lgan tabiiy hududlarning qisqarishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishiga olib kelmoqda. So'nggi yillarda mavjud muammolarga innovatsion yechim topishga harakat qilinsa-da, ammo bu iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlaridan ortda qolmoqda. Faktlarga murojaat qiladigan bo'lsak, avtomobillarning yoqilg'i samaradorligi o'sishi bilan avtomobilga bo'lgan ehtiyoj ham ortmoqda. Shuni ham ta'kidlash kerakki, so'nggi yillardagi ommaviy harakatlar natijasida ba'zi joylarda ekologik vaziyatning salbiy ta'sirini oldini olishga erishildi. Yerning ozuqa ta'minoti o'rmon yong'inlari, qurg'oqchiliklar, amaldagi turli toshqinlar va yana bir necha turdagi muammolar tufayli ziyon ko'rmoqda¹. Ekologiyaning inson salomatligi va yo'qolish xavfi ostida qolgan yovvoyi tabiatga tahdid solayotgan muammolar sirasiga dunyoning ko'plab shahar havosining haddan tashqari ifloslanishi, Antarktidadagi stratosfera va ozon qatlamining yemirilishi, hududlardagi suv havzalarining turli chiqindilar bilan to'lishi, tuproq erioziyasi, kislotali yomg'irlarni kiritish mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, so'nggi 50 yillikda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ekologik muammolarga qarshi shoshilinch choralar ko'rish zarur. Ushbu holat ayniqsa dunyo aholisining sezilarli darajada ko'payishi muammoning jiddiylik darajasini yanada orttirmoqda. Tabiiy resurslarning keragidan ortig'i bilan ishlatilishi o'ziga xos bo'lgan tabiiy hududlarning qisqarishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishiga olib kelmoqda². Ushbu muammolarga qarshi eng maqbul yechim sifatida keyingi yillarda ko'plab dunyo olimlarining ilmiy ishlaridan o'rin egallayotgan ekologik turizm ko'rsatilmogda.

Qator rivojlangan mamlakatlarda ekologik turizmning samarali yo'lga qo'yilishiga olib kelgan omillar deya barqarorlik talablariga javob berish, mahalliy aholini sohaga keng jalb qilish, ilmiy hamkorlikni tashkil etish, soha mutaxassislarni ko'proq jalb etish, manfaatdor tomonlar o'rtasidagi kelishuvlarni rag'batlantirish, soha mutaxassislarning malakasini doimiy ravishda oshirib borish, soha ma'lumotlar bazasini doimiy kuzatib va yangilab borish kabi xususiyatlarni aytib o'tish mumkin³ va rivojlanayotgan mamlakatlar yuqorida keltirilgan jihatlarni e'tiborga olish orqali ekoturizmni manfaatli tashkil etish imkoniyatini qo'lga kirita oladi. Ekologik turizm dunyo atrof-muhitining barqaror holatda mavjud bo'lishida tabiiy resurslarni oqilona boshqarish orqali suv va havoning ifloslanish darajasining pasayishiga olib keluvchi samarali turizm yo'nalishi hisoblanadi. Ammo, ushbu yo'nalish quyidagi sharoitlar yaratilgandagina tabiat va insoniyat uchun foydali ko'rinishga keladi:

- ✓ yovvoyi tabiatni asrashga qaratilgan bilimlarni kengaytirish;
- ✓ tabiiy resurslarni saqlab qolishga qaratilgan har qanday loyihani qo'llab-quvvatlash;
- ✓ yo'qolish arafasiga kelib qolgan hayvon va o'simlik turlarini alohida nazoratga olish;
- ✓ hududlarda mahalliy aholini sohaga qiziqitirish orqali mintaqa tabiatiga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish;
- ✓ tabiiy resurslarni asrab qolishga qaratilgan huquqiy bazani shakllantirish;
- ✓ tabiat qo'yniga uyushtiriladigan sayohatlar hajmining kichikligiga e'tibor qaratish;
- ✓ tabiatni asrab qolishning ahamiyatini yoritib beruvchi ilmiy dasturlarni ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Carmen Peris. Traveling for pleasure: a brief history of tourism. 2022
2. Ecotourism market size, share and trends analysis report. By activity type, land, marine. By group (Solo, group). By booking mode, by age group, by region and segment forecast, 2022-2030. Market analysis report. National ecotourism strategy and action plan 2013-2022
3. Jon Bruno. Global ecotourism trends and suggestions. The international ecotourism society. 2022
4. P.Wahono, D.Poermo, M.S. Kusumah. Strategy for developing sustainable tourism. 2018. IOP conference. Series: Earth and Environmental science 361
5. Raquel Pryzant. How ecotourism benefits the environment and local communities. 2023
6. Sarah I. Jennifer M., Jos S., Daniel V. Promoting sustainability through the integration of citizen science and ecotourism. 2018

¹ Valavanidis A.(2019). Current Environmental Issues and Emerging Global Challenges in the 21st Century for Environmental Protection and Sustainable Development

² Vora Sh. Where Sustainable Travel is headed in 2017. 2017

³ Sarah I. Jennifer M., Jos S., Daniel V. Promoting sustainability through the integration of citizen science and ecotourism. 2018

7. Valavanidis A.(2019). Current Environmental Issues and Emerging Global Challenges in the 21st Century for Environmentla Protection and Sustainabile Development
8. Vora Sh. Where Sustainable Travel is headed in 2017. 2017

<p>Ш.Тойирова</p> <p>Экотуризм - инновационное решение глобального экологического кризиса</p> <p>Аннотация: В статье исследуется экологический туризм как эффективное направление туризма, приводящее к снижению уровня загрязнения воды и воздуха за счет рационального использования природных ресурсов при стабильном состоянии мировой окружающей среды. Чрезмерное использование природных ресурсов приводит к сокращению уникальных природных территорий и утрате биологического разнообразия. Экологический туризм, получивший место в научных работах многих ученых мира в последние годы, показан как наиболее оптимальное решение этих проблем.</p> <p>Ключевые слова: экологический кризис, массо-вый туризм, экотуризм, природные ресурсы, устойчивое развитие, биологическое разнообразие.</p>	<p>Sh.Toyirova</p> <p>Ecotourism - innovative solution to the global environmental crisis</p> <p>Abstract: In the article, ecological tourism is studied as an effective tourism direction that leads to a decrease in the level of water and air pollution through the rational management of natural resources in a stable state of the world environment. Excessive use of natural resources leads to the reduction of unique natural areas and the loss of biological diversity. Ecological tourism, which has taken a place in the scientific works of many world scientists in recent years, is shown as the most optimal solution to these problems.</p> <p>Keywords: ecological crisis, mass tourism, ecotourism, natural resources, sustainable development, biological diversity.</p>
---	---

Дилшод Мураткулович Абдураимов – СамИСИ, “Реал иқтисодиёт” кафедраси
доценти в.б, PhD

ТУРИЗМ ИНФРАТУЗИЛМАСИДА ИҚТИСОДИЙ ФАОЛИЯТНИНГ РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ

Аннотация: мақолада туризм инфратузилмасида иқтисодий фаолиятни амалга оширишнинг асосий омиллари ва хусусиятлари, туристик харажатларнинг амалга ошириш даври ва хусусиятларига кўра таснифи, туризм соҳасида ишлаб чиқариш имкониятлари ҳамда ялпи туристик маҳсулотни аниқлаш усуллари тадқиқ қилинган.

Калит сўзлар: туризм, туризм инфратузилмаси, туризм индустрияси, туристик харажатлар, туристик хизматлар, туристик товарлар, ялпи туристик маҳсулот.

Кириш. Ҳозирги вақтда туризм соҳаси кўплаб ривожланаётган давлатларнинг асосий даромад манбаи сифатида хизмат қилмоқда. Туризм соҳаси ижтимоий-иқтисодий ривожланиш ва барқарорликни таъминлашда муҳим рол ўйнайди. Маълумки, туризм инфратузилмасини ривожлантириш, туризм инфратузилмасида иқтисодий фаолиятни амалга оширишнинг асосий омиллари ва унинг ўзига хос хусусиятлари, туристик товарлар ва хизматларни ишлаб чиқариш жараёни, туризм соҳасида ишлаб чиқариш имкониятлари ҳамда ялпи туристик маҳсулотни аниқлаш усуллари тадқиқ қилиш алоҳида долзарб ҳисобланади.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Туризм инфратузилмасининг ривожланиши масалалари иқтисодий адабиётларда кам ўрганилган. Хусусан, И.В.Зорин, В.А.Квартальнов¹, М.Қ.Пардаев², М.Б.Биржаков³, М.А.Морозов⁴, И.С.Тухлиев, Р.Ҳайитбоев, Б.Ш.Сафаров, Г.Р.Турсунова⁵, М.Т.Алимова¹, Х.М.Маматқулов² каби олимлар туризм

¹ Туристский терминологический словарь: справочно-методическое пособие / Авт.-сост. И.В.Зорин, В.А.Квартальнов. - М.: Советский спорт, 1999.

² Пардаев М.Қ. ва бошқалар. Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари. Ўқув кўлланма. – Т.: «Иқтисод-молия», 2008. - Б. 133.

³ Биржаков М.Б. Введение в туризм. - СПб.: Издательский дом Герда, 2004.

⁴ Морозов М.А. Инфраструктурное обеспечение предпринимательской деятельности в туризме: монография. - М.: РосНОУ, 2005.

⁵ Тухлиев И.С., Ҳайитбоев Р., Сафаров Б.Ш., Турсунова Г.Р. Туризм асослари. Дарслик. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. – Т.: «Fan va technology», 2014. 151-б.

ISSN 2091-5187

∞ “СЕРВИС” ∞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

07.09.2023 йилда теришга берилди. 22.09.2023 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 13,6. Адади 100 нусха. Буюртма № 0074А/23.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2023